



TURKIYA TASHQI SIYOSATIDA KURDLAR OMILI

Nazarova Fotima Raimjon qizi

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati” mutaxassisligi
1-kurs magisrtanti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada kurdlar omilining Turkiya tashqi siyosatiga ta'siri masalalari tahlil etiladi. Unda Turkiya ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida kurdlarning o'zni, Iroq va Suriya kurdlari omilining Turkiya tashqi siyosatidagi ahamiyati, Turkiyaning Suriya va Iroqda o'tkazgan harbiy amaliyotlari, shuningdek, AQShning “Yangi Yaqin Sharq” konsepsiyasi va “Kurd koridori” loyihasi hamda “Kurd bahori” deb atalgan paradigmalarning Turkiya milliy xavfsizligiga ta'siri masalalari atroflicha ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Kurdiston ishchi partiyasi (KIP), Kurdiston, “Kurd bahori”, “Yangi Yaqin Sharq”, “Kurd koridori”, “Firot qalqoni”, “Zaytun novdasi”, “Tinchlik bulog'i”, “Panja kalit”, “Panja qilich”.

1. KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Bugungi Turkiya zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida muhim rol o'ynovchi aktorlardan biri hisoblanadi. Turkiyaning Yevropa va Osiyo bog'lovchi ko'prik maqomi, Yaqin Sharqdagi faol geosiyosiy va geostrategik vazni, tobora kengayib borayotgan geografik imkoniyatlari uning jahon sahnasidagi ta'sirchan nufuzidan dalolat beradi. Ammo, Turkiya tashqi siyosatidagi eng nozik nuqtalardan biri kurdlar omili bo'lib, bu rasmiy Anqarani muntazam tashvishlantirib turuvchi strategik muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Usmonli turklar imperiyasidan keyin “Kurdiston” davlatining tashkil topmay qolgani, ularning o'z mustaqil davlatiga ega bo'lmagan dunyodagi eng katta millatlardan biri sifatida tarqoq ekanligi nafaqat Turkiyaning, balki Yaqin Sharqning istiqboldagi geosiyosiy xaritasini tubdan qayta tashkil etilishiga turtki beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylantiradi.

Bu borada xalqaro tahlilchilar “Yaqin Sharq xavfsizligi – bu jahon xavfsizligi kalitidir”, degan tamoyilga jiddiy amal qilish zarur, deb ta'kidlashmoqda. Ammo, Yaqin Sharqdagi muammolarning siyosiy yechim topilishi o'rniga, yangidan-yangi muammolar paydo bo'lishi holatlari borgan sari kuchayib bormoqda. Natijada mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari ham susayib, zamonaviy mintaqaviy muammolarga to'g'ri va oqilona xalqaro huquqiy yondashuv orqali baho berish zaruratini kun tartibiga aylantirmoqda.

2. METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Qayd etish joizki, kurdlar muammosi bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar yoki kitoblar turli yondashuvlarga asoslangan holda olib borilgan va bu jarayon ayrim siyosiy va milliy manfaatlar tufayli davom etib kelmoqda. Ushbu tadqiqotlarning serqirra ekanligi uning g'arb, rus, turk va arab olimlari tomonidan turlicha baholanishi bilan chambarchas bog'liq. Ta'kidlash joizki, kurdlarning tarixiy shakllanishi va ularning kelib chiqishiga oid tadqiqotlarning aksariyati asosan xorijiy G'arb olimlari hamda rus olimlarining tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Xususan, kurdlarning kelib chiqish tarixini yoritishda Mak Duell qalamiga mansub “*Kurdlarning zamonaviy tarixi*”, Maykl Gunterning “*Kurdlarning tarixiy lug'ati*”, F.Minorskiyning “*Kurdlar*” kitoblari, Aso Burxonning “*Bugungi Iroq Kurdistoni*”,

shuningdek V.Nikitinning ham “*Kurdlar*” nomli kitobi muhim rol o‘ynaydi. Mazkur ilmiy ishlarda kurdlar haqida arxiv materiallari, tarixiy hujjatlar va boshqa qiziqarli adabiyotlar asosida batafsil ma’lumotlarni olish mumkin. Shuningdek, Harriet Allsopp, David Phillips, Abbas Vali, Cengis Gunes, Cuma Çiçek, Ömer Gömkse İşyar, S.Ivanov, M.Lazarev, T.F.Aristova, O.A. Mazur [1] va boshqa olimlarning ilmiy ishlari Yaqin Sharqdagi kurdlar muammosi, jumladan, Turkiya, Iroq, Eron va Suriya davlatlarining kurdlar masalasidagi siyosati hamda ushbu muammo bilan bog‘liq yirik davlatlar tashqi siyosiy qarashlarini o‘rganishda yaqindan yordam beradi. Shuningdek, kurdlar masalasini chuqurroq anglashda mustaqil Kurdiston davlati tuzish uchun kurash olib borgan, Kurdiston ishchi partiyasi asoschisi Abdulla O‘jalanning “*Kurd muammosi va demokratik millat modeli yechimi: madaniy genotsid iskanjasida qolgan kurdlar himoyasi*” [2] deb nomlangan kitobi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif ushbu kitobda kurdarning kelib chiqishi, hayoti va faoliyati, Kurdiston ishchi partiyasi va uning g‘oyaviy asoslari, Yaqin va O‘rta Sharqning istiqboldagi xaritasida kurdarning hal etuvchi roli bilan bog‘liq masalalarni batafsil yozadi.

Shuningdek, kurdlar masalasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan mahalliy kurdshunos olim Farhod Karimovning “*Yaqin Sharqda etnik kurdlar muammosi*” nomli monografiyasi va “*Yaqin Sharq davlatlaridagi etnosiyosiy jarayonlarda kurd omili*” [3] mavzusidagi siyosiy fanlar doktorligi dissertatsiyasi alohida o‘rin egallaydi. Unda etnik muammolar va ularning nazariy asoslari, kurdlar va Kurdiston muammosining Yaqin Sharq geosiyosiy jarayonlariga ta’siri va ushbu muammoni hal etish masalalari atroflicha tadqiq etiladi.

Maqolada tarixiylik, tizimli-mantiqiy va qiyosiy-siyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

3. TADQIQOT NATIJALARI

Jahonda ikki mingdan ortiq etnoslar mavjudligi, ularning aksariyati o‘z mustaqil davlatchiligini tashkil qilish uchun kurash olib borayotgani, o‘z navbatida, xalqaro huquq nuqtayi nazaridan etnoslar bilan bog‘liq qoidalarning turlicha talqin etilishi yoki yagona yondashuv mavjud emasligi bugungi noan‘anaviy tahdidlar sharoitida yanada dolzarb o‘rin egallamoqda. Xususan, dunyodagi yirik etnoslardan biri hisoblangan kurdlar va bu bilan bog‘liq bo‘lgan muammo nafaqat Yaqin Sharqda, balki jahon miqyosidagi katta muammo hisoblanadi. Kurdarning Yaqin Sharqdagi to‘rtinchi eng katta etnos ekanligi, qolaversa, mintaqaga ta’sir ko‘rsatish vositasiga aylanishi uchun ulardan geosiyosiy maqsadlar yo‘lida foydalanishga urnishlar kuzatilmoqda. Mazkur sabablar va ayniqsa, kurdlar muammosining tub ildizini teran anglash uchun kurdlar etnosining paydo bo‘lishi va unga oid yondashuvlarni o‘rganish, tahlil etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Kurdlar o‘z mustaqil davlatiga ega bo‘la olmagan dunyodagi qadimiy ko‘p sonli etnoslardan biridir. Kurdarning umumiy soni so‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, taxminan 30-40 mln.gacha deb ko‘rsatilmoqda. Kurdarning 47-54 foizi (15 mln. ga yaqini) Turkiyada, 20-32 foizi (6,6 mln.) Eronda, 16-20 foizi (6 mln) Iroqda, qolgan qismi esa boshqa davlatlarda (Suriyada 2,8 mln., Germaniyada 800 ming, Ozarbayjonda 150 ming, Isroilda 100 ming, Livanda 10 ming, Turkmanistonda 40 ming, AQShda 20 ming) istiqomat qiladi [4, B.107, 108].

Kurdlar Turkiyaga ham konstruktiv, ham destruktiv ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omil hisoblanadi. Konstruktiv jihati shundaki, kurdlar Turkiyaning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga ma’lum ma’noda hissa qo‘shib kelgan va bu jarayon hozirda ham davom etib kelmoqda. Jumladan, Turkiyaning 8-prezidenti Turgut Ozal kelib chiqishiga ko‘ra kurd oilasidan bo‘lgan. Turkiya Milliy razvedka tashkiloti (MIT)ning sobiq rahbari, hozirda Turkiya Tashqi ishlari vaziri sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan Hoqon Fidan ham ota tomondan kurdarga mansub. R.T.Erdog‘an hokimiyatga kelishi bilan rasmiy Anqaraning kurdarga nisbatan siyosati dastlab liberal xususiyatga ega bo‘lgan. Biroq, Iroq Kurdistonining tashkil topishi, keyinchalik Suriyadagi “Arab bahori” voqealari va suriyalik kurdarning faollashuvi natijasida kurdlar omili Turkiyada destruktiv xususiyat kasb etib, Turkiyaning hududiy yaxlitligiga katta xavf sifatida baholana boshlanadi. Buni Iroq va Suriya kurdlarining Turkiya tashqi siyosati ta’siri misolida tadqiq etish masalani yanada aniqroq anglashga yaqindan ko‘mak beradi.


Iroq kurdleri. Iroqda kurdlar arablardan keyin ikkinchi yirik etnik guruhdir, ular asosan mamlakatning shimoliy qismida yashaydi. Bu hududda neft va gazning katta zaxiralari, muhim suv resurslari mavjud. Aynan Iroqda kurdarning milliy muxtoriyati va alohida Iroq Kurdistonini avtonom hududi tashkil etilgan Iroq kurdleri qolgan uch davlatdagi kurdlardan o'z milliy tashkilotlari va harakatlari soni ko'pligi bilan alohida ajralib turadi. Bundan tashqari, ularning aksariyati Iroq siyosiy jarayonlarida juda faol bo'lib kelmoqda. Iroq Kurdistonida joylashgan neft boyliklari tashqi kuchlarni doimiy qiziqishiga olib kelgan. Bu esa, o'z-o'zidan Iroq Kurdistonidagi vaziyatga tashqi omillar ta'sirini ham ko'rsatib beradi. Tarixshunos olim S.Ivanov haqli ravishda yozganidek, "Iroq kurdlerinin bo'lajak taqdiri nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalarini samarali hal etish bilan, balki tashqi omillarning o'rni bilan ham o'lchanadi". Shuningdek, olimning "bu yerda avvalgidek kurdlerinin manfaatlari bilan muvofiq kelayotgan AQSh ma'muriyati siyosati hal etuvchi rol o'ynashi, Kurdiston mintaqaviy hokimiyati va Iroq markaziy hokimiyati, arab-shia, arab-sunniy guruhleri hamda Turkiya, Eron va Suriya davlatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ham muhim ta'sir etuvchi omil bo'lib qolishi" haqidagi fikrlariga to'liq qo'shilamiz. Boz ustiga, Iroq Kurdistonini mustaqil tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyat olib borishga intiladi. Hattoki, Kurdiston mintaqaviy hukumati (KRG) Turkiya bilan chegaradosh hududlar ustidan bojxona va chegara nazorati o'rnatgan. Eng e'tiborlisi bu yerda 30 dan ortiq xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalari akkreditatsiyadan o'tgan [5, C.82].

Turkiya uchun Iroq Kurdistonini nafaqat geosiyosiy, balki geoiqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Bunda Anqara Kurdiston mintaqaviy hukumatini qo'llab-quvvatlab, Kirkukdagi neft mahsulotlari eksportini Yevropa va boshqa hududlarga sotishda vositachilik vazifasini bajarishi mumkin. Qolaversa, bunday siyosat Iroq kurdlerinin Suriya kurdleri bilan aloqasini oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Suriya kurdleri. Suriyadagi kurdlar etnik ozchiligi Turkiya, Iroq va Eron kurdleridan farqli ravishda tarixiy davrlarda markaziy hukumat bilan keskin mojarolarga bormagan. Tahlilchilarning fikriga ko'ra, Suriya hukumati kurdlerden Turkiyaga bosim o'tkazish maqsadlarida foydalanishga bir necha marotaba harakat qilgan. Xususan, Kurdiston ishchi partiyasi va uning rahbariyati Asadlar rejimi tomonidan Turkiyaga qarshi kurash vositasi sifatida qo'llanilganligini qayd etish mumkin. Darhaqiqat, Suriya Dajla va Firotda suvlari ustidan Turkiyaning Janubi-Sharqiy Anadolu loyihasi (Guneydogu Anadolu Projesi - GAP) tushirilishi hamda Sovuq urush davrida ikki qarama-qarshi blokka tegishli bo'lgan eski adovat va tortishuvlar tufayli Turkiya bilan juda ziddiyatli munosabatlar shakllangan. Suriyaning poytaxti Damashq esa Abdulla O'jalan uchun Turkiyaga qarshi hujumlarni amalga oshirishda tayanch nuqta va xavfsiz boshpana bo'lgan [6, P.13-14]. Shunday bo'lsa ham 1998-yilda Turkiya va Suriya o'rtasida imzolangan Adana bitimi Suriya kurdleri uchun tashqi yordamni cheklab qo'yar edi. Professor Umar Guksel Ishyarning yozishicha, "imzolangan ushbu bitim Suriyadagi, umuman Yaqin Sharqdagi kurd harbiy guruhleri uchun tom ma'noda falokatga teng edi" [7, S.414]. Suriya hukumati qarori bilan O'jalan mamlakat hududidan chiqarib yuborildi. Ushbu voqea KIP yetakchisining avval Rossiyaga, so'ngra Italiyaga qochishi va hibsga olinishiga olib keldi, Italiya hukumati esa uni Turkiyaga ekstraditsiya qildi. 1999-yil fevral oyida Anqara hukumati A.O'jalanni Nayrobidagi Yunoniston elchixonasidan Keniya poytaxti aeroportiga olib ketayotganida hibsga oldi. Ammo, 2011-yil Suriya boshlangan "Arab bahori" voqealaridan keyin Suriya kurdleri qaytadan Turkiya uchun xavf sifatida namoyon bo'ldi. "Arab bahori" voqealari "domino effekti"ni hosil qilishi "Kurd bahori" degan atamalar paydo bo'lishiga olib keldi. AQSh Davlat departamentining tashqi ishlar bo'yicha eksperti va maslahatchisi sifatida faoliyat yuritgan, Inson huquqlari bo'yicha Kolumbiya universiteti professori Devid Filipsning "*Kurd bahori: Yaqin Sharqning yangi xaritasi*" deb nomlangan kitobida istiqbolda kurdlerinin ommaviy harakatlari yuz berishi, bu esa Yaqin Sharq xaritasiga katta ta'sir ko'rsatishini tahlil etadi. Ekspertning qaydlariga ko'ra, "Kurd bahori" aslida XX asrning 80-yillaridan boshlangan va bu XXI asrning istiqbolida Iroq va Suriyada o'z aksini topadi. Darhaqiqat, Iroqdagi vaziyat, "Arab bahori" natijasida boshlangan Suriyadagi fuqarolar urushi natijasida kurdlerinin sezilarli darajada faollashuvi va ma'lum hududlarni mustaqil boshqaruv va nazorat ostiga olayotgani eng birinchi navbatda Turkiyani jiddiy xavotirga soladi.

Turkiya tashqi siyosatida kurdlar omilining yana bir o'ziga xos ta'siri Qo'shma Shtatlar tomonidan ishlab chiqilgan "Yangi Yaqin Sharq" va "Kurd koridori" loyihalari hisoblanadi.

“Yangi Yaqin Sharq”. Ko‘plab siyosatchilar muhokamasiga sabab bo‘lgan yangi konsepsiyalardan biri “Yangi Yaqin Sharq” (New Middle East) loyihasidir. Bu konsepsiya to‘liq neokonservativ ruhda shakllantirilgan bo‘lib, AQShning Yaqin Sharqdagi tashqi siyosiy strategiyasining muhim jihatlarini namoyon qiladi.




“Yangi Yaqin Sharq” konsepsiyasi xaritasi

“Yangi Yaqin Sharq” jumlasini ilk bor AQSh rasmiylari tomonidan 2006-yil iyunda “Katta Yaqin Sharq” konsepsiyasiga o‘rindosh sifatida Tel-Avivdagi chiqishida e‘lon qilingan. Ekspertlar fikricha, bu chaqiriq AQSh-Buyuk Britaniya-Isroilning birgalikda ishlab chiqqan Yaqin Sharqdagi “yo‘l xaritasi” hisoblanadi. Bu konsepsiya mintaqa bo‘yicha urush o‘choqlari va tartibsizlik vaziyatini kuchaytirib, “ijodiy xaos” kuchlarini barpo etishga qaratiladi. “Yangi Yaqin Sharq” vositasida AQSh, Buyuk Britaniya va Isroil o‘zlarining geostrategik va boshqa manfaatlariga muvofiq Yaqin Sharq xaritasini qayta shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. “Yangi Yaqin Sharq” ning ishlab chiqilishi bilan uning xaritasi ham yuzaga keldi. “Yangi Yaqin Sharq” geosiyosiy xaritasi amerikalik iste‘fodagi polkovnik Ralf Peters tomonidan ishlab chiqilgan. Xarita R.Petersning “*Hech qachon kurashni to‘xtatma*” (“Never Quit the Fight”) nomli kitobining bir muhim qismi hisoblanib, u 2006-yilning 10-iyulida ommaga taqdim etilgan edi. Bundan tashqari, bu xarita R.Peters tomonidan AQShning qurolli kuchlari jurnalida “*Qonli chegaralar: Yaqin Sharq qanday ko‘rinishga ega bo‘lishi lozim*” (Blood Borders: How a better Middle East would look) sarlavhasi ostida ham bosib chiqarilgan [8].

Ralf Peters xaritasiga ko‘ra, bugungi kundagi Yaqin Sharq mintaqasi chegaralari tarixiy, etnik, milliy jihatdan haqiqatga mos emas. Shuning uchun ham muammolar yechimi topilmayapti. Bu esa chegaralar o‘zgarishini taqozo etadi. O‘zgarishlar davlatlar o‘rtasidagi keskin siyosatning yuzaga kelishi, davlatlardagi ichki va konfessiyalararo qarama-qarshiliklar oqibatidagi qurolli nizolar natijasida ro‘y berishi mumkin. Ralf Peters va Bernard-Anri Levi qaydlariga ko‘ra, “Yangi Yaqin Sharq” loyihasi Turkiya, Iroq, Eron va Suriyadagi bir qator hududlarni o‘z ichiga olgan mustaqil “Ozod Kurdistan” (Free Kurdistan)ni yaratishni o‘z ichiga oladi. Ushbu mamlakatlarda istiqomat qiluvchi 40 million kurdarni yagona davlatga birlashtirish orqali Yaqin Sharqning istiqboldagi yangi geosiyosiy xaritasi vujudga keladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Yaqin Sharqda “Kurdiston xaritasi”ni ishlab chiqish har doim Yaqin Sharqda ta’sir o‘tkazishga intilayotgan turli geosiyosiy qudrat egalarning qo‘llarida bo‘lib kelgan. Bu xarita to‘g‘ridan-to‘g‘ri Turkiyaning hududiy yaxlitligiga putur yetkazuvchi loyiha hisoblanadi.

“Kurd koridori”. Suriyaning shimolidan O‘rta Yer dengiziga qadar kurdlar boshchiligidagi tashkil etilishi mo‘ljallangan loyiha. Kurdistan ishchi partiyasining Suriyadagi bo‘limi bo‘lgan PYD va YPG terrorchi tashkilotlari tomonidan tuzilishi rejalashtirilgan ushbu loyiha Turkiya uchun jiddiy tahdid sifatida ko‘riladi. Suriyaning shimolida muhim harakatlar maydoni vujudga kelishi, Suriyaning parchalanish ehtimoli va bu hududda terrorchilik harakatlarini amalga oshirish imkoniyatini yuzaga kelishi Anqarada xavfsizlik borasida jiddiy xavotirlarni uyg‘otadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Kurd koridori loyihasi AQSh tomonidan qo‘llab-quvvatlangan [9, B.278].



Istiqboldagi Kurd koridori loyihasi

Yuqoridagi loyihalar Ronald Reyganning “Kurdlar Amerika istalgan vaqtda yondirishi mumkin bo‘lgan gugurtdir”, degan fikrlarini tasdiqlaydi. Ushbu loyihalar tom ma’nodagi Turkiyaning hududiy parchalanishi demakdir.

Shu sababdan, Turkiya o‘z tashqi siyosatida kurdlar bilan bog‘liq yuqoridagi tahlikali muammolarni harbiy choralar orqali hal etishga intilib kelmoqda. Bugungi kunda Turkiya nafaqat o‘z hududidagi, balki Iroq va Suriyadagi kurdlarning ham ozodlik harakatini bostirib kelishga harakat qilmoqda. Masalan, so‘nggi yillarda Iroq hududida “Panja kalit” va Suriyada “Panja qilich” operatsiyalarini amalga oshirdi.

“Panja kalit” operatsiyasi. Turkiya Milliy Mudofaa Vaziri Hulusi Akar 2022-yilda Turk Qurolli Kuchlari (Türk Silahlı Kuvvetleri) tomonidan Iroq shimolidagi Metina, Zap va Avashin-Basyan hududlaridagi terror guruhlariga qarshi yerdan va havodan “Panja kalit” operatsiyasi boshlanganini e’lon qilar ekan, “Qurolli Kuchlarimiz Iroq shimolidan xalqimizga va xavfsizlik kuchlariga qarshi terror hujumlarini oldini olish va chegaramizning xavfsizligini ta’minlash maqsadida “Panja kalit” operatsiyasini boshladi” [10], - deb ma’lum qildi. Ushbu amaliyotni Turkiya Tashqi ishlar vazirligi matbuot kotibi “Turkiya BMT Nizomining 51-moddasiga binoan o‘zini himoya qilish huquqidan kelib chiqqan holda KIPni Iroqdan yo‘q qilish uchun zarur choralarni ko‘rishda davom etadi”, - deb oqlagan edi. Rossiyalik turkolog, siyosiy fanlar doktori V.A.Avatkov ekspert sifatida Turkiyaning Iroqdagi operatsiyasini quyidagicha izohladi: “Turkiya dunyo davlati maqomini olish uchun ham yumshoq, ham qattiq kuchni namoyish qilishga urinmoqda. Chunki, Turkiya rasmiylari Iroqdagi amaliyot misolida o‘z imkoniyatlarini namoyish etdi. U postsovet va post-usmonli hududlarda yumshoq kuchdan, Suriya, Liviya va Iroqqa nisbatan esa qattiq kuchdan foydalanmoqda” [11].

“Panja qilich” operatsiyasi. Turkiya Suriyada kurdlar masalasini “Firoq qalqoni”, “Zaytun novdasi”, “Tinchlik bulog‘i” va “Panja qilich” singari operatsiyalar orqali harbiy yo‘llar bilan hal etishga intilmoqda. 2022-yilning noyabr oyida Istanbulda sodir bo‘lgan portlashda Turkiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri Suriya shimolidagi kurd tashkilotlarini aybdor sifatida ma’lum qildi. Natijada Turkiya qo‘shinlari va kurd jangarilari o‘rtasida Suriya chegarasi bo‘ylab o‘zaro javob zarbalari avj olganidan so‘ng Anqara tomonidan “Panja qilich operatsiyasi” (Pence-Kılıç Operasyonu) boshlandi. Bu Turkiyaning Suriyadagi to‘rtinchi eng katta operatsiyasi hisoblanadi. R.T.Erdog‘an bu xususida quyidagicha bayonot berdi: “Biz bir necha kundan beri samolyotlarimiz, to‘plarimiz va qurollarimiz bilan terrorchilarga zarba berdik. Tanklarimiz, askarlarimiz bilan tezroq ularning barchasini ildizi bilan qirib tashlaymiz”. Anqara Istanbuldagi portlashda Kurdiston Ishchi partiyasi va unga aloqador suriyalik kurd guruhlarini aybladi. Biroq, kurd jangchilari bunga aloqadorligini rad etishgan. Turkiya Mudofaa vazirligining ma’lum qilishicha, “Panja qilich” deb nomlangan operatsiyada 184 jangchi o‘ldirilgan va 89 ta nishon, jumladan, ular panoh topgan boshpana, bunker, g‘or va tunnel yo‘q qilingan [12].

Yuqoridagi sanab o‘tilgan dolzarb masalalar Turkiya zamonaviy tashqi siyosatida muhim rol o‘ynashi ayon bo‘lsa-da, yaqin istiqbolda Turkiya kurdlar muammosi eng birlamchi muammoga aylanish ehtimoli mavjud.

4. XULOSALAR

Turkiyaning tashqi siyosati tahlili kurdlar masalasi istiqbolda Turkiya uchun ustuvor o‘rinda bo‘lishi, hattoki eng birinchi muammo sifatida baholanishini taxmin qilish imkonini beradi. Shu boisdan, quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

birinchidan, Turkiyadagi kurdlar bir vaqtning o‘zida mamlakatga ham konstruktiv, ham destruktiv ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Iroq Kurdistonining tuzilishi va Suriyada ro‘y bergan “Arab bahori” voqealari natijasida kurdlarning faollashuvi Turkiyani kurdlari siyosatida keskin qarorlar qabul qilishiga sabab bo‘ldi.

ikkinchidan, har qanday holatda ham kurdlar muammosining keskinlashuvi Turkiyadagi milliy-etnik munosabatlar tizimiga katta xavf tug‘diradi. Shu boisdan Turkiya o‘z tashqi siyosatida kurdlar masalasini “Firoq qalqoni”, “Zaytun novdasi”, “Tinchlik bulog‘i”, “Panja kalit” va “Panja qilich” singari operatsiyalar orqali harbiy yo‘llar bilan hal etishga intilmoqda.

uchinchidan, AQShning “Yangi Yaqin Sharq” va “Kurd bahori” loyihalari zamirida kurdlarni geosiyosiy maqsadlar vositasiga aylantirish yotgani, jumladan, Turkiyaga ta’sir ko‘rsatish rejalari mavjudligini ko‘rsatib beradi. Ayniqsa, “Yangi Yaqin Sharq” konsepsiyasi geosiyosiy xaritasida “Ozod Kurdiston” mustaqil davlatining tashkil etilishiga ishora qilinishi shunday rejalardan darak beradi.

Iqtiboslar

1. David McDowall. *Modern History of the Kurds*. London, I.B. Tauris, Third edition, 2005. – 515 pp., Michael M.Gunter. *Historical Dictionary of the Kurds*. – Rowman & Littlefield, 2018. – 474 pp., Minorsky V. *Kurdistan, Kurds*. – Cambridge University Press, 1971. – 310 pp., Асо Бурхан. *Иракский Курдистан сегодня // Курдский фактор в региональной геополитике. (Материалы круглого стола в ИМЭМО РАН 11.03.2015 г.) / Под редакцией А.Г. Арбатова*. – М.: ИМЭМО РАН, 2015. – С. 20., Никитин В. *Курды*. – Москва: “Прогресс”, 1964 г. – 432 с., Harriet A. *The Kurds of Northern Syria Governance, Diversity and Conflicts*. – London, I.B.Tauris, 2019. – 242 pp., David L.Phillips. *The Kurdish Spring: A New Map of the Middle East*. Transaction Publishers, New Brunswick, 2015. – 240 pp., Abbas Vali. *Kurds and the State in Iran: The Making of Kurdish Identity*. – London, I.B.Tauris, 2011. – 216 pp., Cengiz Gunes. *The Kurds in a New Middle East: The Changing Geopolitics of a Regional Conflict*. Palvrage Macmillan, 2019. – 124 pp., Cuma Çiçek. *The Kurds of Turkey: National, Religious And Economic Identities*. – London, I.B.Tauris, 2017. – 352 pp., David L.Phillips. *The Kurdish Spring: A New Map of the Middle East*. Transaction Publishers, New Brunswick, 2015. – 240 pp., Ömer Gömkşel İşyar. *Suriye Krizi ve Türk Dış Politikası*. Sayda, 2018. – S.414., Иванов С.М. *Иракский Курдистан на современном этапе (1991–2011 гг.)*. – М.: ИМЭМО РАН, 2011. – 86 с., Лазарев М.С. *Курдистан и курдский вопрос (1923-1945)*. – М.: 2005. – 310 с., Аристова Т.Ф. *Курды Закавказья: историко-географический очерк*. –М.,1966. – С. 45., Мазур О.А. *Курдский вопрос в политическом конфликте в Сирии*. – М., 2019. – С. 32-37.
2. A.Odzhalan. *Manifest demokraticheskogo obshchestva. Kniga pyataya: Kurds kaya problema i resheniye modeli demokraticheskoy natsii: Zashchita kurdiv, nakhodimsya v tiskakh kul'turnogo genotsida. Federal'naya natsional'no-kul'turnaya avtonomiya kurdiv RF. [A.Ocalan. Manifesto of a Democratic Society. Book Five: The Kurdish problem and the solution to the model of a democratic nation: Protecting the Kurds, we are in the grip of cultural genocide. – М.: Federal national-cultural autonomy of the Kurds of the Russian Federation] (in Russian) – М.: 2016. – 832 с.*
3. Ф.Э. Каримов. *Якин Шарқ давлатларидаги этносиёсий жараёнларда курд омили. Сиёсий фанлар доктор (DSc) диссертацияси автореферати. [F.E. Karimov. The Kurdish factor in ethno-*

political processes in the Middle East. Abstract of the dissertation of Doctor of Political Sciences (DSc.) (in Uzbek). – T.: 2021. – B.8.

4. Ф.Э. Каримов. Яқин Шарқдаги этносиёсий муаммолар ва минтақавий хавфсизлик масалалари. [F.E. Karimov. Ethnopolitical problems and regional security issues in the Middle East.] (in Uzbek). – T: “Шарқ”, 2016. – Б. 107-108.
5. С.М. Иванов. Иракский Курдистан на современном этапе (1991–2011 гг.). [С.М. Ivanov. Iraqī Kurdistan at the present stage (1991–2011).]. (In Russian). – М.: ИМЭМО РАН, 2011. – С.82.
6. Adem Uzun. “Living Freedom” The evolution of Kurdish Conflict in Turkey and the Efforts to Resolve it. Berghof Foundation., 2014. – P. 13-14.
7. Ömer Gömksel İşyar. Suriye Krizi ve Türk Dış Politikasi. Sayda, 2018. – S.414.
8. Ralf P. Blood borders: How a better Middle East would look. June 1st, 2006. <http://armedforcesjournal.com/blood-borders>.
9. S.Bo‘ronov, H.Azimov Sharq mamlakatlarida xavfsizlik muammolari va mojarolar. [S Buronov, H.Azimov Security problems and conflicts in Eastern countries]. (In Uzbek). – Toshkent: “EFFECT-D”, 2023. – B.278.
10. Ş.Yeni. Peñçe-Kilit operasyonu nedir, nerede gerçekleşiyor? Peñçe-Kilit operasyonunun bütün detayları. 22.04.2022. <https://www.yenisafak.com/amphtml/pence-kilit-operasyonu-nedir-nerede-gerceklesiyor-pence-kilit-operasyonunun-butun-detaylari-h-3795853>
11. А.Владимир. Операция «Peñçe Kilit»: На севере Ирака нейтрализованы 56 боевиков | 1news.az | Новости <https://1news.az/news/20220425013512377-Operatsiya-Penche-Kilit-Na-severe-Iraka-neitralizovany-56-boevikov>
12. Erdogan threatens Syria ground operation ‘as soon as possible’. 22 November 2022. AlJazeera. <https://www.aljazeera.com/news/2022/11/22/russia-respects-turkeys-concerns-in-syria-calls-for-restraint>
13. Suhrob Bo‘ronov, Habibullo Azimov. (2023) Sharq mamlakatlarida xavfsizlik muammolari va mojarolar o‘quv qo‘llanma